



**EZGU FIKR, EZGU SO‘Z, EZGU AMAL!**

**9-MAY – XOTIRA VA QADRLASH KUNI**

# **ILM SARCHASHMALARI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETINING  
ILMIY-METODIK JURNALI**



**2018–4**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

# Ilm sarchashmalari

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA va FALSAFA hamda FIZIKA-MATEMATIKA fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.*

4.2018

научно-методический журнал  
Издаётся с 2001 года

Urganch – 2018



**Jo'rabek Xudayberganov (UrDU)**  
**O'ZBEKISTONDA REKREATION TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA**  
**XOS XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda rekreatsion turizmni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, sohada qilinayotgan o'zgarishlar to'g'risida ma'lumot keltirilib, O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qaror va farmonlarining hududlar kesimida ijrosi va natijasi tahlilga tortilib, uni istiqbolda rivojlantirish bo'yicha xulosa va takliflar berilgan.

**Аннотация.** В статье представлена информация о текущем состоянии рекреационного туризма в Узбекистане, об особенностях этого вида туризма, анализируются выполнение принятых в Республике Узбекистан указов и решений в территориальном разрезе, приводятся перспективные разработки и рекомендации.

**Annotation.** This article describes the characteristics of the development of recreational tourism in Uzbekistan, as well as changes in the area and analyzes the results of the decisions and decrees of the Republic of Uzbekistan and there were given conclusions and suggestions on their future development.

**Kalit so'zlar:** sog'lomlashtiruvchi turizm, rekreatsiya, rekreatsion resurslar, turistik xizmatlar, dam olish uylari, turistik zonalar, turistik infratuzilma.

**Ключевые слова:** оздоровительный туризм, рекреация, рекреационные ресурсы, туристические услуги, дома отдыха, туристические зоны, инфраструктура туризма.

**Key words:** recreation, recreational resources, touristic services, rest houses, touristic zones, touristic infrastructure.

Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizm. O'zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, ularning aksariyati YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan.


Shu bilan birga, mamlakatimizning betakror tabiati, go'zal dam olish zonalarini imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo'nalishlar ochish mumkin. Bu sohaga jahon brendlarini faol jalb etgan holda, biz ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bu borada davlat xususiy sheriklik munosabatlarini qo'llash, sohani taraqqiy ettirishda keng imkoniyatlar ochishini hisobga olishimiz lozim. Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilishdan iborat bo'lgan "kichik haj" dasturini rivojlantirish va jadal-lashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi katta imkoniyatlarni ham to'liq ishga solish lozim.<sup>1</sup>

Darhaqiqat, O'zbekiston bugungi kunda turizm bo'yicha katta imkoniyatga ega bo'lishiga qaramasdan, undan to'laqonli foydalanilmayotgani, sohada qilinishi zarur bo'lgan ishlar nechog'lik muhimligidan dalolat beradi. Jumladan, O'zbekiston iqlimining o'ziga xosligi va o'zida 4 ta faslning muajassamligi bilan butun dunyo ahlini hanuzgacha hayratda qoldiradi. Shu bilan birga, turizmning eng muhim yo'nalishlaridan biri – bu rekreatsion turizm bo'lib, bular sog'lom-lashtiruvchi va ko'ngilochar maskanlar, dam olish maskanlari, sanatoriya, mehmon uylari va pansionatlar.

Rekreatsion turizm bu o'zining jozibadorligi va sog'lamtirish ahamiyatiga ega ekanligi bilan turizmning boshqa turlaridan ancha farq qilishi va muhimligi bilan ajralib turadi, lekin sohadagi vaziyat qoniqarli darajada emas. 2016-yilning tahlil natijalariga qaraydigan bo'lsak, O'zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar sonini va rekreatsion turizm bo'yicha tashrif buyurganlarini quyidagi jadval orqali qiyoslab ko'rish orqali xulosa chiqarish mumkin.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisa Murojaatnomasi. Toshkent, 2017-yil 21-dekabr.





1-rasm. O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari va ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni.<sup>1</sup>

Rasmga asosan, 2016-yilda O'zbekiston Respublikasiga 2157,7 ming nafar chet el fuqarolari tashrif buyurgan, bu 2000-yilga nisbatan 7 barobarga (1855,3 ming nafar) ko'paygan. O'zbekistondan chet elga chiqqan fuqarolar 5310,0 ming nafarni tashkil qilib, 2000-yilga nisbatan 12 barobarga (4867 ming nafar) ko'pdir.

Turizmning ommabop yo'nalishlaridan yana biri rekreatsion turizmda 2016-yil davomida O'zbekiston Respublikasi, MDH va Uzoq Sharq mamlakatlaridan kelgan jami tashrif buyurgan sayyohlar soni 310241 nafarni tashkil qilmoqda, shuningdek, bulardan 305575 nafar O'zbekistondan 4553 nafar MDH mamlakatlaridan, qolgan 113 nafar Uzoq Sharq mamlakatlaridan ekanligi bu yo'nalishning turizm industriyasidagi ulushi yaxshi darajada emasligini ko'rish mumkin (1-jadval).

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, qilinishi zarur bo'lgan ishlar ko'pligidan dalolat bermoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2016-yil 2-dekabrda mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog'i sifatida turizmni rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish hududlarning ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, turizm tarmog'ini boshqarishni tubdan takomillashtirish, milliy turizm mahsulotlarini yaratish va ularni jahon bozorlarida targ'ibot qilish, turizm sohasida O'zbekistonning ijobiy qiyofasini shakllantirish yuzasidan "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni turizm industriyasi uchun yangi bosqich, yangi davrni boshlab berdi. Yuqoridagi farmon bu tarmoqni rivojlantirish va sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish, sohaning rivojlanishi uchun g'ov bo'lib turgan viza to'siqlarni olib tashlash va ayrim davlatlar bilan vizaviy rejimni soddalashtirish sohada yangi innovatsion g'oyalarni taqdim etish uchun turtki bo'ldi.

Jumladan, turizmning ommabop va eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan rekreatsion turizm uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "2018–2019-yillar davomida respublika hududida turizm sohasini rivojlantirish, dam olish zonalarini va plajlar tashkil qilish bo'yicha"<sup>2</sup> qaror qabul qilindi. Yuqoridagi qaror yuzasidan quyidagi manzillarda ishlar olib boriladi, ya'ni Andijon viloyatining Xonobod shaharchasida dam olish zonasi, Jizzax viloyatining Forish va Arnasoy tumanlari hududidagi "Aydar-Arnasoy" ko'llari sohilida beshta yangi dam olish zonasi, Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz va Qarshi shaharlarida to'rt yulduzli mehmonxonalar qurish, Bo'stonliq tumanining Chimyon tog' massivida mehmonxona majmuasi barpo etish,

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi saytidan [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

<sup>2</sup> [www.kun.uz](http://www.kun.uz) 2017.16.08.



Toshkent viloyatining Chimyon-Chorvoq kurort-rekreatsiya zonasi chegarasi doirasida "Chorvoq" erkin turistik zonasini (keyingi o'rinlarda – erkin turistik zona) tashkil etish, shuningdek, ichki turizm uchun Navoiy viloyatidagi "To'dakul" ko'lining janubiy sohillarida, xorijiy turistlar uchun "Aydarko'l" sohillarida plajlar tashkil etish rejalashtirilmoqda.

	Jamoaviy Joylashtirish vositalari soni, birlik	Nomer fondi, birlik		Joylash-tirilgan shaxslar soni, kishi	Shu jumladan, fuqarolar:		
		Nomer-lar (xo-nalar soni	joylar		O'zbe-kiston	MDH mamla-katlari-dan	uzoq xorijiy mamla-katlar-dan
O'zbekiston Respublikasi	157	9379	22098	310241	305575	4553	113
Qoraqalpog'iston Respublikasi	10	361	791	5451	5451	-	-
Viloyatlar:							
Andijon	7	276	801	4845	4845	-	-
Buxoro	3	202	430	7619	7529	90	-
Jizzax	5	349	750	15633	15571	62	-
Qashqadaryo	12	445	1007	10909	10908	-	1
Navoiy	6	328	655	8995	8995	-	-
Namangan	13	1201	2562	46207	46017	190	-
Samarqand	17	555	1655	15425	15425	-	-
Surxondaryo	9	336	744	6965	6924	41	-
Sirdaryo	1	6	12	278	246	32	-
Toshkent	24	2271	4433	90728	89192	1424	112
Farg'ona	32	2047	4707	57165	57023	142	-
Xorazm	4	88	405	3837	3837	-	-
<b>Toshkent sh.</b>	14	914	3146	36184	33612	2572	-

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida dam olish va sanatoriyalarda qoluvchilarning hududlar kesimi bo'yicha soni.<sup>1</sup>

Ta'kidlash joizki, yuqoridagi erkin turistik zona hududida zamonaviy mehmonxona majmualari, madaniy-sog'lomlashtirish, savdo-ko'ngilochar va turistik ahamiyatdagi boshqa obyektlar qurish, shuningdek, zamonaviy muhandislik infratuzilmasi obyektlarini tashkil etish va bu yerga xorijlik investorlarni jalb etish, ular bilan hamkorlikda ish olib borish takliflari ilgari surildi. Birgina misol qilib aytadigan bo'lsak, 2016-yil 2-dekabrda farmonining ijrolari hududlar kesimida rivojlantirish uchun qilinayotgan ishlar natijasida O'zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar soni 2017-yilda 2 mln 520 ming nafardan ziyodni tashkil qildi, bu esa oldingi yilga nisbatan 24.3% ga oshganligidan dalolat beradi, ya'ni buni valutada hisoblaydigan bo'lsak, bu 1 mlrd 517 mln AQSH dollarini tashkil etadi.<sup>2</sup>

Turizm industriyasi va uning bir qismi bo'lgan rekreatsion turizm yo'nalishida qilinayotgan ishlarning hammasi mamlakatimizning ijtimoiy va iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash, yurtimizning jozibadorligini butun dunyoga tanitish va mavjud resurs-imkoniyatlardan foydalan-gan holda, yurtimizda yangi ish o'rinlarini tashkil qilib, turmushimiz farovonligini oshirish va mamlakatimiz budjetiga valuta tushumini oshirishdan iborat.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasiulleteni. Toshkent, 2016.

<sup>2</sup> O'zbektourism statik ma'lumotlari [www.uzbektourism.uz](http://www.uzbektourism.uz)



## MUNDARIJA

### 9-MAY – XOTIRA VA QADRLASH KUNI

S.Umarova. Inson o'tar dunyodan, ortidan mangu bir iz qolajak.....	3
--	---

### AKADEMIK MATYOQUB QO'SHJONOV TAVALLUDINING 100 YILLIGIGA

X.Abdullaev. Matëkub Kùshjonov nazaridagi adib maktablari.....	7
--	---

### TIBBIYOT

D.Batirov, Z.Yangibaev, A.Rahimov, D.Yusupov. Jigar ëhinoкоккозининг йиринглаган асоратларида декасан препаратининг ишлатилиши.....	10
---	----

### BIOLOGIYA

M.Bekchanova, M.Aminov, D.Aminova. O'zbekistonda uchrovchi arvoh kapalaklar oilasiga mansub turlarning hayotiy shakllari va biologiyasi.....	13
--	----

### TURIZM VA IQTISODIYOT

J.Xudayberganov. O'zbekistonda rekreatsion turizmni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	16
--	----

### FALSAFA

M.Allaeva. Naqshbandiya tariqatining falsafiy mohiyati va uning zamonaaviy ahamiyati.....	19
S.Mamanzarov, A.Ropiev, X.Xidirov. XVI asr falsafiy tafakkurida Muhammad Shayboniyxon va Muhammad Solihning urini va roli.....	22
M.Yusupov. Globallashuv sharoitida aholining tibbiy savodxonligi va tibbiyot madaniyatining rivojlaniш тенденцияlari.....	24

### TILSHUNOSLIK

B.Kushokova. Til ijtimoiy funktsiyalari ta'riflari va tasnifi muammolari.....	29
M.Xalilova. Mikromatnlarning sistemaviy tabiati.....	31
Sh.Shokirov, D.Umurzakov. "Kuz" semantikasiga ega leksik birliklar kichik tadqiqoti.....	35
B.Zaripov, D.Boboyorova. Fe'l yasashida sinonimiya hodisasi va ularning uslubiy xususiyatlari.....	38
N.Kulichov. "Oltun ërug" asarida uzlasma leksika.....	40

### ADABIYOTSHUNOSLIK

B.Ashurov, S.Bobojonova. Dilshod Rажab she'rларида shakllari va mazmunii barqamollik.....	45
G.Boltayeva. "Shohnoma" va "Panch Ganch"da yil fasllari talqini.....	48
J.Mizrabova. "Xamlet" tragediyasi tamnatida yashiringan "Olam-saxna" metaforasi va uning tarjimalarda ifodalaniши.....	51

### PEDAGOGIKA

S.Ollaberganova, Z.Saidjanova. Maktabgacha ta'lim muassasalarida xalq og'zaki ijodiyoti namunalari-dan foydalanish.....	57
M.Djumaniyozova, S.Ismoilova. Globallashuv jarayonida yoshlarni axborot xurujlaridan psixologik himoya qilishning o'ziga xos xususiyatlari.....	59
N.Ruzmetova. Kul'turnii konsept: ego sushnost' i rol' v prepodavanii inostrannykh yazykov.....	62
I.Sultanov. The Role of Multimedia in Teaching Foreign Languages.....	65
D.Kattaбаeva. Teaching Speaking on the Basis of Communication.....	68
M.Mirvaliyeva, Z.Rasulova. To the Question of the Use of Active Training Methods.....	72

### ILMIY AXBOROT

J.Kodirov. Qadimgi Xorazmda etimologlar va diniy qarashlar.....	75
M.Ahmedov. Markazii Osië xalqlari musikasi va musikaushunosligi tarixidan.....	80
K.Rasulov. Ob analoge teoremy Abelya dlya kratnykh stepennykh ryadov.....	84
Sh.Ramazanov. Sistema russkogo slovoobrazovaniya.....	87

### FANIMIZ ZAHMATKASHLARI

A.Xolmurodov. Bahshilar yurtining zahmatkash olimi.....	92
---	----

### QUTLOV

O.Abdullaev, R.Yuldoshev. Tadqiqoti dolzarblik kasb etgan iste'dodli olim.....	96
--	----